



OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETISHDA ISHTIROK ETUVCHI BOLINMALARGA KADRLARNI SARALASH METODIKASI (XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA)

Nazarov Farrux Yakubovich

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tингловчиси

Annotatsiya: Ommaviy tartibsizlikdek ulkan muammoni oldini olish, bartaraf etish kabi mas’uliyatlari ishni amalga oshirish, insondan ulkan qat’iyat va kuchni talab qiladi. Ushbu maqolamizda dunyoning rivojlangan davlatlaridagi shu mavzuga oid xavfsizlik o‘rganlari xodimlariga qo‘yiladigan talablar va normitavlarini, yurtimida mahalliylashtirish va xayotga tadbiq qilish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: S.W.A.T, O.M.O.N, GSG 9

Bugungi globallashuv va axborot xurujlari davrida yuzaga chiqayotgan muammolar o‘z navbatida omavviy tartibsizlik va g‘alayonlarni keltirip chiqarmoqda. Bunday xavfni oldini olish va bartaraf etish uchun qurolli kuchlar va xavfsizlik o‘rganlaridan katta kuch va metin iroda talab qiladi. Shu va shunga o‘xshash qobiliyatlar tezda paydo bo‘lmasligi, buning uchun doimi jaismoni va ruxiy teyyorgarliklardan o‘tish lozim ekanligi xammaga ayon bo‘lsada, bunday qiyinchilik va sinovlarga xamma ham dosh bera olmaydi.

Dunyo statistikasiga ko‘ra A.Q.SH qurolli kuchlarining “dengiz mushuklari” bo‘linmalariga qo‘shilishga xarakat qilgan xarbiy xizmatchilarning atigi 10 foizigina qabul qilinadi[1].

Britaniyaning “SAS” bo‘linmalariga kirish istagida bo‘lgan xar 125 xarbiy xizmatchidan atigi 10tasi sinovlarga bardosh berib o‘ta oladi[2].

Germaniyaning “GSG 9” bo‘linmasiga esa kandidatlardan 10-15 foizi sinovlardan o‘tgan xolda umumiy o‘quv tayyorgarliklariga qo‘yiladi[3]

Yuqorida misol sifatida keltirilgan bo‘linmalarning xammasi ham ommaviy tartibsizlikni bartaraf etishda ishtirok etmasada bunday xilatlarda ish olib boruvchi bo‘linmalar tayyorgarligi haqida boshlang‘ich tushuncha beradi. So‘zimiz davomida shu va shunga o‘xshash bo‘linmalariga qabul qilish talablari haqida aytib o‘tamiz.

1. AQSH(S.W.A.T)- bolinmaga kirish politsiya ofitserini 3-5 yil davomida xizmat ko‘rsatgandan kegn elita bo‘ilmasiga qo‘shilish uchun ariza yozishidan boshlanadi. Bo‘linmada bo‘sh o‘rin ochilgani haqida gazeta va jurnallarda elon beriladi. Odatda 1 bo‘sh o‘ringa 100-150 ariza tog‘ri kelgani sababli orasidan eng



kuchlilari tanlab olinadi. Tanlash jarayonida nomzodning xizmat faoliyati davomida qancha tibbiy ta'til olganligi, otishmada qatnashganligi, fuqarolar tomonidan billdirilgan unga nisbatan fikirlari va jismoniy tayyorgarligi ko'rib chiqiladi.

Komissiya tomonidan tekshiruvlar tugagach ofitserdan bir-necha xafka ichida otish tayyorgarligi va jamoaviy xarakatlanish ko'nikmalarini oshirish talab qilinadi, undan kegn 'tanlanganlar' o'z quroldoshlari bilan tanishib chiqadi so'ngra otryad komondiri suxbatidan o'tkaziladi. Agarda nomzod biror bir punktga tog'ri kelmasa uning ishi yopiladi va rad javobi beriladi. Barcha tekshiruvlardan o'tgan va kerakli ko'nikmalarga ega bo'lgan ofitserlar o'zlariga yaqin bo'lgan va to'g'ri keladigan yonalishlarda xizmat olib boradi, ular:

Shturmchi- jismonan baquvvat, vaziyatga to'g'ri baxo bera oluvchi va tez, aniq qaror qabul qilish tajribalariga ega bolishi lozim.

Merganlar- jismonan bardoshli, ulkan sabr, juda yaxshi ko'rish xisoblay olish qobiliyatiga ega bolishlari kerak.

Muzokarachi- ushbu soxa xizmatchilaridan katta kuch va jismoniy tayyorgarlik yuqorida aytilgan soxa xazmatchilaridek talab qilinmasada, ulardan kuchli psixologik tayyorgarlik, insonning ruxiy xolatiga to'g'ri baxo bera olish va kerak bo'lsa uni boshqarish kabi ko'nikmalar talab qilinadi.

2.Rossiya(O.M.O.N.)- ushbu bo'linma xaqida mustabit (CCCP)ga a'zo davlatlari fuqarolari orasida, eshitmagan odam bo'lmasa kerak. bo'yi 170 sm dan kam bo'limgan yoshi 18-35 oraligidagi, jismonan baquvvat xavfsizlik qoriqchilari ushbu nufuzli unvonga erishguniga qadar va faoliyati davomida boshdan kechirgan og'ir qiyinchiliklar va jismoniy zo'riqishlariga chidash xammani ham qo'lidan kelmaydi. Bu haqda quyida batafsil gapirib o'tdik

Tibbiy ko'rik:

1. Bo'yi 170sm dan kam bo'lmasligi.
2. Surunkali va yuqumli kasalliklari yoqligi.

3. Narkologiya va ruhiy kasalliklar shifo honasida ro'yhatda turmaslik va turmaganligi xaqida malumot noma.

4. Uzoqlik uchun minimal ko'rish keskinligi har bir ko'z uchun 0,6 diopter; yaqinni ko'ra olmaslik – har bir ko'z uchun 0,75 diopter, uzoqni ko'ra olmaslik– har bir ko'z uchun 2,0 diopter.Ko'pincha bo'lgan 8 darajagacha bo'lgan strukturaviy skoliozning muammosi bo'linmadagi xizmatga to'sqinlik qilmaydi. Sog'lig'ida normativga to'g'ri kelmaydigan ozgina kamchiligi bor kandidatlar xazmatga yaroqsiz deb hisoblanadi.

Tibbiy ko'rikdan o'tgan xizmatchilar kegingi bosqichga yuboriladi.



Jismoniy mashqlar:

1. Kuch bilan tuship-chiqish mashqi- 60 marotaba.
2. Press mashqlari- 60 marotaba.
3. Tortilish mashqi- kamida 18 marotaba. Pastki nuqtada qo'llar ohirigacha tushgan tekkis holatda, yuqori nuqtada iyak “turnikdan” tapada bo'lishi shart
4. Yoqlarni ko'krakga olib kelib sakrash- 60 marotaba
5. 12 daqiqada 3km ga yugurish.

Normativda ko'rsatilgan mashqlarni bajarishdan bosh tortgan kandidatlar tekshiruvdan ot'magan hisoblanadi. Muvofaqiyatli yakunlaganlar esa, tekshiruvning kegingi bosqichiga yuboriladi.

Jangovar tayyorgarlik:

1. qo'l jangi qoyidalari asosida.
2. Yakka kurash qoyidalari asosida.
3. Jangovar sambo qoidalari asosida bo'lib o'tadi. Ushbu bosqichda xizmatchining ko'rsatib o'tilgan sport turlari boyicha maxorati emas, balki, xizmatchining ruhiyati tetikligi va jismonan chidamliligi tekshiriladi. Darxaqiqat yuqorida aytilgan jismoniy mashqlar va zo'riqishlardan so'ng, bu bosqichda passiv himoya emas aktiv jang oborish, kishidan katta matonat va chidamlilikni talab qiladi[4].

3. Germaniya (GSG 9)- ushbu bo'linmaga kirish uchun qo'yilgan talablar yuqoridagilarga nisbatan biroz pastroq bolsada, ular ko'rsatgan xizmatlar samaradorligi maqtovga loyiq. 2016 yil Myunxendagi otishmalarda ko'rsatgan yordami, 2021 il Yurgen Koningsni qidiruvadagi ishtirok (Belgiya). 2021 yil daclat to'ntarilishi uysushtirish fantnasida gumonlanuvchi “Reyhisbury” qatnashilariga qarshi o'tkazilgan reydlari bunga misol bo'ladi. Ushbu bo'linmaning o'tkazga ko'p operatsiyalari maxfiy hisoblanadi. “Xo'sh bu bolinmaga qabul qilish talablari?” qanday degan savolga quyida javob berib o'tdik.

Kandidatlar o'quv sikliga qo'yilishdan avval besh kunlig baxolashdan o'tadi. Testlar tibbiy ko'rik, psixologik baxolash, pistolet va avtomatdan o'q uzish, og'zaki suxbat va jismoniy holatni baxolashlarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy tekshiruvlar:

1. Kuper testi [5]
2. 100 metrlik sprint
3. Turgan joyidan uzoqlikga sakrash
4. 10 dan kam bo'lмаган tortilish mashqlari
5. Kuch bilan tushib-chiqish mashqi kamida 10 marotaba



6. to'siqlar kursi
7. Chaqqonlik sinovlari
8. Bosh aylanishiga chidamlilik testlaridan tashkil topadi.

Sinovdan o'tgan kanditatlar kegingi 4-5 oy ichida umumiyligida maxsuslashtirilgan o'quv amaliyot tayyorgarligidan o'tadi. O'quv amaliyoti o'q zuish, taktik kurslar, qo'l jangi, quruqlikda navigatsiya, toqqa chiqish, rappelling va tibbiy tayyorgarlik dan iborat. Asosiy mashg'ulotlar nomzodlar katta stress ostida o'z mahoratlarini namoyish etishga majbur bo'lgan qattiq sinovlarning so'nggi haftasi bilan yakunlanadi. Asosi tayyorgarlikni muvofaqiyatli yakunlagan nomzodlar o'mutaxassisliklari bo'yicha tirli bolinmalarga yuboriladi[6].

MALUMOTLAR TAHLILI:

Yuqorida ko'rsatilgan bo'linmalarga o'xshash, misol qilishga arzugulik bo'linmalar soni mintaqada yetarli, ammo ming afsuski davlatlarning tinchligini buzuvchi g'araz niyyatli kimsalarga bunday argumentlar kam ekanligini xozirgi kunda jahonda yuz berayotgan voqealar ko'rsatib turibdi. Qoraqalpog'istonning Nukus shaxrida bo'lib o'tgan xodisalar bizni ham sergaklikka chorladi va bundan to'g'ri hulosa chiqargan holda Respublikamiz mudofasini tashqi va ichqi dushmanlardan ximoyasini yanada takomillashtirishimiz kerak deb toptik. Shu o'rinda yuqriddagi jahonga mashxur bo'linmalarga qabul qilish va xizmat o'tash jarayonidagi jangovar tayyorgarligini bekorga misol qilib keltirmaganimizni takidlagan holda ularning tajribalaridan o'rnat olib, O'zbekiston respublikasi hududidaham jahonga o'rnat bo'la oladigan bo'linmalar tashkil qilishimiz va ma'nani yetuk, jismonan sog'lom va albatta yurt tinchligi , xavfsizligi uchun jonkuyar kadrlar tayyorlashimiz lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/SEAL#Отбор_и_подготовка
2. <https://ru.wikihow.com/попасть-в-SAS#:~:text=Основной%20состав%20SAS%20набирается%20только,SAS%2C%20либо%2010%20проходят%20отбор>
3. https://en.wikipedia.org/wiki/GSG_9#Selection
4. https://vk.com/wall-19557099_306894
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Cooper_test
6. https://en.wikipedia.org/wiki/GSG_9